



## KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRIDAGI O'QUVCHILARNI TASHXIS QILISHDA ART TERAPIYA USULLARINING AHAMIYATI.

**Qayumova Samigul Zokir qizi**

qayumovasamigul@gmail.com 998990952358

QarDU 1-kurs tayanch doktoranti

**Kalit soʻzlar:** Art-terapiya, psixologiya, badiiy estetika, psixoterapiya, sanʼat, Qushlar oilasi, ertak terapiya, tasviriy sanʼat.

Davlatimiz mustaqillikka erishgan kundan boshlab, taʼlim sohasiga jahon standartlari talablarini joriy etish boʻyicha tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu oʻrinda Prezidentimizni quydagi soʻzlarini asos qilishimiz mumkin. “Eng muhim va dolzarb masalalardan biri-yuksak maʼnaviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarga, oʻz mustaqil fikrga ega boʻlgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat.”

Oʻsib kelayotgan yoshlarning ongu shuurini, tafakkurini maʼrifat asosida shakllantirish va tarbiyalash masalalariga bagʻishlangan ilmiy izlanishlarda jahon ilmiy fan rivojiga ulkan hissa qoʻshgan allomalarning maʼrifatparvarlik qarashlaridan yoshlar tarbiyasida samarali foydalanish, bilim olish jarayonida dunyoqarash, intellektual salohiyatni kengaytirish amaliy ahamiyat kasb etib, kelajakni belgilab beruvchi asosiy psixologik omil sifatida baholanmoqda.

Bugungi kunda fan taraqqiyoti rivojlangan bir davrda yashamoqdamiz. Taʼlim jarayoniga yangicha qarashlar, yangicha yoʻnalishlar, yangicha usullar yangicha fanlar kiritilmoqda.

Shu oʻrinda psixologiya tarmoqlaridan biri art terapiya ham bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Art terapiya - bu rasm chizish terapiyasi, yaʼni tasviriy sanʼat bilan davolash haqida edi, lekin keyinchalik ijodning boshqa turlari - qoʻshiq aytish, raqsga tushish, aktyorlik qilish, modellashtirish sifatida rivojlanib bormoqda. Shuningdek, dolzarb masalalardan chalgʻitishga yordam beradi, balki oʻzingizni chuqurroq bilishga, ichki "men", shu tariqa komplekslar va qarama-qarshiliklardan xalos boʻlishga, kayfiyatni yaxshilashga, ruhiy holatni uygʻunlashtiradi. Art-terapiya istalmagan yon taʼsirga ega emas va insonga qarshilik koʻrsatmaydi, chunki bu masalada natija emas, balki jarayonning oʻzi muhimdir. Art terapiya keng qamrovli ahamiyatga ega. Art terapiya usullari quydagilarga imkon beradi:

- bolaning psixoemotsional holatini oʻzgartiradi;
- potensial aqliy resurslarni ozod qiladi;
- turli xil badiiy faoliyat turlari uchun ijobiy motivatsiyani shakllantiradi;
- muloqotdagi toʻsiqlarni yengib oʻtish, oʻzini va boshqalarni tushunishga yordam beradi;
- estetik va axloqiy gʻoyalarni shakllantiradi;
- ruhiy farovonlik, quvonchli his-tuygʻularning paydo boʻlishiga yordam beradigan hissiy jihatdan qulay muhit yaratadi;
- xotirada quvonchli, hayojonli xotiralarni qoldirish, atrofdagi odamlarga, atrofdagi dunyoga, sanʼatga qiziqish uygʻotadi;
- stressni salbiy taʼsirlarini kamaytirish va toʻliq bartaraf etadi;
- ijobiy fikrlashni shakllantiradi va h.



Art-terapiya usullari bilan psixolog mashg'ulotlari ruhiy holatni uyg'unlashtirishdan tashqari quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

- insonni, uning iste'dodi va qobiliyatini ochib beradi.
- ko'p kasalliklardan tiklanishni tezlashtiradi.
- Psixolog va o'quvchi o'rtasida aloqa o'rnatish, ular o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatadi.
- O'quvchilarga diqqatini ichki tajribalariga qaratishga va his-tuyg'ularini boshqarishni o'rganishga yordam beradi.
- Insonning ijtimoiylashishiga yordam beradi.
- O'quvchi odatiy tarzda ifoda eta olmaydigan yoki istamaydigan his-tuyg'ularini va fikrlarini ifoda etishga turtki beradi.

Art terapiyani turlaridan biri bu - ertak terapiyadir. Ertak terapiya orqali o'quvchilarda kuzatiladigan salbiy holatlarni diagnostika qilish va korreksiya qilish mumkin. Shunday ertaklardan biri - Qushlar oilasi testi hisoblanadi. Bu test orqali o'quvchilarning xotirasi, tafakkuri, ota-onaga munosabati va mustaqilligi aniqlandi.

Bajarish uchun ko'rsatmalar: rangli qalamlar va rasm daftar. Shuningdek ertak aytish jarayonida bu rasmni o'quvchi bilan birgalikda chiziladi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamonda bir qush uyasida ota qush, ona qush va kichkina bola qushcha yashashar ekan. Bir kuni juda qattiq shamol turibdi. Shamol daraxtning qushcha ini joylashgan shoxini sindiribdi va in yerga tushib ketibdi. In bilan birga qulagan ota bir shoxga uchib borib qo'nibdi, ona boshqa bir shoxga qo'nibdi. Nima deb o'ylaysiz, bola qaysi shoxga, kimning oldiga borib qo'ngan? Otasining oldigami yoki onasining oldidagi shoxgami? Qayerga qo'ngan bo'lishi mumkin?

To'g'ri javob: Bola qushcha boshqa bir shoxga qo'nibdi, Bola qushcha onasining oldidagi shoxga uchib borib qo'nibdi, chunki bola qo'rqib ketgan ekan-da, Otasining oldidagi shoxga borib qo'nibdi, chunki otasi kuchli ekan-da. Agar o'quvchi boshqa shoxga qo'nishini tanlasa, demak, u mustaqil va qo'rqmas ruhiyat sohibiga aylanib bo'libdi. Mustaqil fikrga ega deyish mumkin. Agar onasining oldiga borsa va qo'rqsa, demak, onasiga suyanadi. Otasi oldiga borib qo'nsa, otasi bilan yaqinlik va ishonch bor.

Muammoli javoblar: In shamoldan pastga qulayotganda, bu qushcha o'lib qolibdi, Qushchani hech kim eslamadi kabi javoblar yoki umuman chizishni xohlamaslik o'quvchining ichida muammosi borligini bildiradi. Bu ertak terapiyada muammoli javoblarni bergan o'quvchilarni ota-onalari bilan hamkorlikda ishlash kerak. Shuningdek, maktab psixologlari bunday o'quvchilar bilan individual ishlashlari lozimdir.

Xulosa sifatida aytish joizki, art-terapiyani maktab amaliyotida amaliyotchi psixologlar tomonidan chuqurroq o'rganish va amaliyotga joriy qilish bugungi kunda dolzarb masaladir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Елена Тарарина “Практикум по арт-терапии в работе с детьми”.– К 2018-256с
2. D.Edward. " Art Therapy", 2013
3. Pedagogika.Psixologiya” fanidan o'quv-uslubiy majmua. Toshkent;.2016
- 4.Norbosheva, M. (2022). О технике начала разговора с клиентом в психологическом консультировании. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). Извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>